

JAMIYATNI DEMOKRATIYALASHTIRISH JARAYONIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

Erlanova Dilnoza

Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining (OAV) jamiyatni demokratlashtirish jarayonidagi roli tahlil qilinadi. OAV demokratiyaning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, u fuqarolarga axborot yetkazish, jamoat fikrini shakllantirish, hukumatning javobgarligini ta'minlash va siyosiy ishtirokni oshirishda katta rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyati demokratiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil bo'lib, shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi OAVning demokratik jarayonlardagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, Demokratiya, Jamoat fikri, Axborot erkinligi, Siyosiy ishtirok, Mustaqil OAV.

Abstract. This article analyzes the role of the mass media (mass media) in the process of democratization of society. Mass media is an important tool in the formation and strengthening of democracy, it plays a major role in providing information to citizens, shaping public opinion, ensuring government accountability and increasing political participation. The free and independent activities of mass media are an important factor in the successful implementation of democratic processes, and at the same time, the development of modern technologies and the Internet further enhances the importance of mass media in democratic processes.

Keywords: Mass media, Democracy, Public opinion, Freedom of information, Political participation, Independent mass media.

Аннотация. В данной статье анализируется роль средств массовой информации (СМИ) в процессе демократизации общества. Средства массовой информации являются важным инструментом становления и укрепления демократии, играют важнейшую роль в информировании граждан, формировании общественного мнения, обеспечении подотчётности власти и повышении политического участия. Свободная и независимая деятельность СМИ является важным фактором успешной реализации демократических процессов, а развитие современных технологий и Интернета ещё больше усиливает роль СМИ в демократических процессах.

Ключевые слова: Средства массовой информации, Демократия, Общественное мнение, Свобода информации, Политическое участие, Независимые СМИ.

Kirish. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalariga berilayotgan erkinlik hamda demokratiyaning yanada mustahkamlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mening fikrimcha ommaviy axborot vositalari qanchalik erkin bo'lsa demokratiya ham shunchalik yorqin bo'ladi. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyaning yoqilg'isiga qiyoslash mumkin. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari tizimi va uni shakllantirishda, davlat va jamiyat qurilishi sohasida keng ko'lamli demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida oshkoralikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda jamiyat va davlat taraqqiyotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Yurtimizda mustaqil ommaviy axborot vositalarining faoliyat olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 67-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi va qonunga muvofiq ish olib borishi hamda ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgarligi, senzura yo'l qo'yilmasligi takidlangan. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soladigan va xalqaro normalarga javob beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Buni biz O'zbekiston Respublikasining 1997 yilda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi kabi qonunlar misolida ko'rishimiz mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston ommaviy axborot vositalari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish bo'yicha o'z vazifalarini faol bajarmoqda. Ular mamlakatimizda haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylanmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyoda, shu jumladan, mintaqaviy axborot makonidagi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, bugun gazeta, radio, televideniye kabi an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda davlat hamda fuqarolar uchun kata imkoniyat yaratayotgan axborot almashish va uni yetkazib berishning yangidanyangi shakllari paydo bo'lmoqda. Masalan, ommaviy axborot vositalarining hukumat bilan o'zaro hamkorligini jadal rivojlanib borayotgan jarayon deyish mumkin. Demokratik muloqot orqali murosaga kelish va o'zaro anglashishga erishish mumkin. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek ommaviy axborot vositalarining ham salbiy tomoni bor yani, berilayotgan axborotning qanchalik to'g'ri va ishonchli ekanligi juda ham muhim hisoblanadi. Barchamizga malumki, rivojlangan davlatlarda ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusi ya'ni nishoni bu siyosat hisoblanadi va hukumatni keskin tanqid ostiga olgan taqdirda ham xalq emotsiyalarga berilmaydi. Axborotdan foydalanish erkinligi, ayniqsa, u jamiyat xavfsizligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmati singari tushunchalarga daxl qilsa, mutlaq bo'lishi mumkin emas. Bunda cheklovlersiz biror maqsadga erishib bo'lmaydi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi 1953 yilda qabul

qlingan Yevropa konvensiyasiga binoan, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik yoki jamoat tartibi maqsadida, sog'liq va axloqni muhofaza qilish, shaxsning obro'sini yoki boshqa huquqlarini himoya qilish, maxfiy yo'l bilan olingan axborot tarqatilishining oldini olish hamda odil sudlovning xolisligi va nufuzini ta'minlash uchun so'z erkinligi cheklanishi mumkin.

Axborot bugun taraqqiyotga eltuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayni paytda shu narsa qayd etilganki, bu huquq insonning boshqa huquqlari kabi muayyan hollarda cheklanishi mumkin. Ish bor joyda xohlaysizmi xohlamaysizmi kamchiliklar bolgani kabi, ommaviy axborot vositalari ham bundan mustasno emas.

Zamonaviy OAV, televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon va boshqa vositalar, insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlarning mazkur vositalar yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish hamda unga o'zlari shakllantirayotgan «ommaviy madaniyat»ni singdirishi bosh strategik siyosatga aylantirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihat mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlarda e'lon qilinayotgan aholining keng qatlamlari fikriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning doimiy monitoringini amalga oshirsin hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari munosabat bildirishi uchun ularga yuborilishi.

Demokratiya - bu fuqarolarning erkin fikr bildirish, o'z huquqlarini himoya qilish va boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak bo'lgan siyosiy tizimdir. OAV demokratiyaning muhim elementlaridan biri bo'lib, u quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Axborot taqdim etish: OAV jamiyatdagi turli yangiliklarni, qarorlarni, qonunlarni va boshqaruv jarayonlarini axborot vositalari orqali fuqarolarga etkazadi. Bu orqali odamlar o'z huquq va erkinliklarini bilib olishadi, siyosiy qarorlar haqida xabardor bo'ladilar.

2. Jamoat fikrini shakllantirish: OAV omilkorlik va jamoat fikrini shakllantirishda bevosita rol o'ynaydi. Undan foydalanish orqali jamoatchilik ijtimoiy masalalar, iqtisodiy va siyosiy muammolar haqida o'z fikrini bildiradi olishadi, shuningdek, muammolarni yuzaga chiqara olishadi.

3. Hisobot va tanqid: Demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri – bu hukumatning javobgarligi va jamoatchilik oldida hisobdor bo'lishidir. OAV, o'z navbatida, hukumat va uning faoliyatini tanqid qilish, xatolarini aniqlash va ularni fuqarolarga yetkazish imkoniyatiga ega. Shu tarzda, ommaviy axborot vositalari jamiyatda boshqaruvni yaxshilashda muhim vosita bo'ladi.

4. Muzokaralar va ijtimoiy muvozanat: OAV, shuningdek, turli guruhlar o'rtasidagi fikr almashinuvi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ular muhokama, debatlariga maydon yaratib, ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Ommaviy Axborot Vositalarining Demokratik Jamiyatda Ta'siri

Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhimdir, chunki ular quyidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi:

1. Siyosiy ishtirokni oshirish: OAV orqali fuqarolar siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ular turli siyosiy partiyalar va siyosatchilar haqida xabardor bo'lishadi, saylovlar, referendumlar va boshqa demokratik jarayonlar haqida ma'lumot olishadi.

2. O'zgarishlarga qiziqish yaratish: OAV jamiyatda o'zgarishlarga ehtiyojni yaratadi. Masalan, agar OAV orqali jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy yoki iqtisodiy muammolar haqida xabar tarqatilsa, fuqarolar bunday muammolarni hal qilish uchun o'z fikrini bildiradilar, xatti-harakatlar qilishadi.

3. Shaffoflikni ta'minlash: OAV hukumat va boshqa ijtimoiy institutlarning faoliyatini kuzatish va tahlil qilish orqali ularning ishlashining shaffofligini ta'minlaydi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, korrupsiyaning oldini olishga yordam beradi va fuqarolarga boshqaruvni yaxshilash imkoniyatini beradi.

Demokratik jamiyatda OAVning mustaqilligi juda muhimdir. Agar OAV hukumat yoki boshqa iqtisodiy va siyosiy kuchlar ta'sirida bo'lsa, ular to'liq mustaqil va adolatli ma'lumot taqdim eta olmaydi. OAVning mustaqil ishlashi, birinchidan, ularning o'z fikrini erkin ifoda eta olishiga, ikkinchidan esa jamoatchilikni o'zgarishlarga undashiga imkon yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi OAVning demokratlashtirishdagi rolini yanada kuchaytirdi. Internet orqali yangiliklar va ma'lumotlar tez va keng auditoriyaga yetkaziladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatning turli guruhlari o'rtasida o'zaro fikr almashish imkoniyati

yaratilmoqda. Bunday platformalar, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirish va demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda.

Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining demokratik jarayondagi o'rni beqiyosdir. Ular jamiyatni xabardor qilish, jamoat fikrini shakllantirish, hukumatni javobgarlikka tortish, shaffoflikni ta'minlash va siyosiy ishtirokni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, OAVning erkin, mustaqil va adolatli faoliyati demokratik jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga zamin yaratadi. Shuning uchun, ommaviy axborot vositalarining roli nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy va siyosiy tizimni yaxshilashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Xulosa. Ommaviy axborot vositalari jamiyatni demokratlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular fuqarolarning siyosiy jarayonlarga faol ishtirok etishini, hukumatning faoliyatini shaffof qilishni va jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. OAVning mustaqil va erkin ishlashi demokratiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zaruriy shartdir. Zamonaviy texnologiyalar va internetning rivojlanishi esa OAVning demokratik jarayondagi rolini yanada kuchaytiradi. Shu sababli, OAVning to'liq erkin, mustaqil va adolatli faoliyat yuritishi jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" bayram tabrigidagi nutqi.T.: - 2019.
2. Karimov I.A."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T.: -2008
3. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi" (155 - modda, terrorizmga qarshi)-1994.
4. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni.T.: -1998.
5. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (Manba: uza.uz)